YUNESKO ishlari bo‘yicha
O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi

National Commission
of the Republic of Uzbekistan for UNESCO

O‘zbekiston, Toshkent, 100029, T.Shevchenko ko‘chasi 1-uy / 1, T.Shevchenko street, Tashkent, 100029, Uzbekistan
tel: (+998-91) 477-70-90 e-mail: info@unesco.uz e-xat: ncu@exat.uz

2025-yil 23-dekabr № 391/25

O‘zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi

Ma’lumot uchun:

O‘zbekiston Respublikasi
Tashqi ishlar vazirligi

2025-yilning 17-dekabr kuni CLT/4531 son bilan YUNESKO tashkilotining Tabiiy fanlar sohasidagi YUNESKO-Ekvatorial Gvineya xalqaro mukofoti 2026-yil tanlovi e’lon qilinganligi to‘g‘risidaga maktubi YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasiga kelib tushdi.

Mazkur maktubda mukofotning asosiy maqsadi haqida ma’lum qilinib, YUNESKO tashkilotiga a’zo-davlatlarda shaxslar, institutlar va nodavlat tashkilotlar tomonidan inson hayotini yaxshilanishiga salmoqli hissa qo‘shgan ilmiy tadqiqot loyihalari va faoliyatlarini mukofotlashdan iboratligi bildirilgan.

Ma’lumot uchun: YUNESKO-Ekvatorial Gvineya xalqaro mukofoti 300 ming AQSH dollariga teng bo‘lib, tanlovda muvaffaqiyatli qatnashgan uch nafar nomzod o‘rtasida teng taqsimlanishi ma’lum qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va Jahon Fanlar Akademiyasi akademigi, genetik, biologiya fanlari doktori I.Abdurahmonov molekulyar genomika sohasidagi yutuqlari jamlanmasi bilan YUNESKO-Ekvatorial Gvineya xalqaro mukofotining 2022-yil tanlovi sovrindori bo‘lgan. Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar quyidagi havola orqali onlayn tarzda ro‘yxatdan o‘tishlari lozim: www.unesco.org/egip/account-reguest. Nomzodlar ro‘yxatdan o‘tganidan so‘ng ularga YUNESKO tomonidan havola yuboriladi. Har bir a’zo-davlat 5 ta nomzod tavsiya etishi mumkin.

Mazkur tanlovda ishtirok etmoqchi bo‘lgan nomzodlar YUNESKO ishlari bo‘yicha Milliy komissiya kotibiyati muvofiqlashtiruvi ostida quyidagi hujjatlarni onlayn tarzda taqdim etilishlari lozim:

- ariza varaqasi;
- nomzodning mukofot maqsadlariga qo‘shgan hissasi bo‘yicha ma’lumot;
- nomzodning ilmiy-amaliy faoliyati bo‘yicha qisqacha ma’lumot.
- nomzodning muhim o‘nta ilmiy nashrining ro‘yxati.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
K/R: 4/1-11895 2025-yil 23 -dekabr

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: CI47990502

Shu munosabat bilan, tanlovda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan nomzodlar bo‘yicha ma’lumotlarni YUNESKO ishlari bo‘yicha Milliy komissiya kotibiyatiga 2026-yilning 3-mart kuniga qadar tavsiya etishda amaliy yordam ko‘rsatishingiz so‘raladi.

Ilova: _v.

Bosh kotib **O. Gaipov**

Ijrochi: D.Kurbanova
Tel.: 97 749 34 70